

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021. Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

MATNAZAROVA MOHIRA UKTAMOVNA

**KO'CHMANCHI CHORVADORLARNING HUDUDIIY
JOYLASHUVI VA ULARNING HAYOT TARZI (QADIMGI
XORAZM TARIXI MISOLIDA)**

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch–2024

Falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Matnazarova Mohira Uktamovna

Ко‘chmanchi chorvadorlarning hududiy joylashuvi va ularning hayot tarzi (Qadimgi Xorazm tarixi misolida)..... 5

Матназарова Мохира Уктамовна

Территориальное расположение кочевых скотоводов и их образ жизни (на примере истории Древнего Хорезма).....25

Matnazarova Mokhira Uktamovna

The territory of nogardian breeders location and their lifestyle (Ansient in the example of the history of Khorazm) 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....51

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

MATNAZAROVA MOHIRA UKTAMOVNA

**KO‘CHMANCHI CHORVADORLARNING HUDUDIIY
JOYLASHUVI VA ULARNING HAYOT TARZI
(QADIMGI XORAZM TARIXI MISOLIDA)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Urganch–2024

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Tar1316 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Abdullayev Utkir Ismailovich, tarix fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Xolikulov Ahmadjon Boymaxammatovich tarix fanlari doktori, professor Egamberdiyeva Nigora Azadovna tarix fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Qarshi davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi (PhD).03/30.06.2021.Tar.55.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "7" yanvar soat 14 : 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-66-16. e-mail: info@urdu.uz


Dissertatsiya matni bilan Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (A-1560 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-66-16. e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "25" dekabr kuni tarqatildi.
(2024-yil "25" dekabr dagi 16 raqamli reestr bayonnomasi.)




M. K. Saribaev,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, t.f.d., dotsent


X. X. Matyakubov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, PhD., dotsent


M. M. Matyakubova,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi v.v.b.
t.f.n., dotsent.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida sivilizatsion jarayonning rivojlanib borishi, ko'chmanchi chorvadorlar – nomadlar turmush tarzining o'zgarib borishiga, o'troqlashish jarayoni tezlashib, ko'chmanchilik bilan shug'ullanayotganlar sonining kamayishiga qaramay, ularning turmush tarzi, hayoti, o'tmishiga qiziqish ortib bormoqda. Ko'chmanchi chorvadorlarga atrof-muhit ta'siri natijasida o'troq turmush tarziga o'tish jarayonlari bugungi kundagina emas, balki qadimgi va o'rta asrlar davrida ham sodir bo'lib turgan. Ularning o'troq turmush tarziga o'tishi, birlashishi natijasida dunyoda ko'plab imperiyalar tashkil qilingan. Ba'zi rivojlanlangan davlatlar, madaniyatlarning barbod bo'lishiga ham sababchi bo'lishgan. Bugungi kunda dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot muassasalarida ko'chmanchi chorvachilikning shakllanish jarayonlari, ularning joylashgan hududlari, ko'chib yurgan joylari, qishlov hududlari, jamiyat taraqqiyotiga ta'siri, qo'shni bo'lib yashagan hududlar bilan munosabati masalalari, nomadlar imperiyalarining tarixi, savdo va iqtisodiy hayotda tutgan o'rni kabi masalalar bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Jahon miqyosida O'zbekiston hududidagi nomadlar tarixini yozma manbalarda yoritilishi bilan qiyosiy tahlil qilingan. Lokalizatsiya masalalari, arxeologik tadqiqot ishlari natijasiga mo'z – qo'rg'onlarni tadqiq va tahlil qilish orqali nomadlar turmush tarzining o'ziga xos jihatlari, bir-biridan farqi, urf-odatlar, migratsiya masalalari, jamiyat rivojiga ta'siri masalalariga doir salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida ko'plab yangiliklar qo'lga kiritilgan. Aytish mumkinki, Ustyurtdagi ko'chmanchi chorvadorlar madaniyatini o'rganishda rossiyalik olimlar bilan, Buxoro vohasidagi ko'chmanchi chorvadorlar moddiy yodgorliklari tadqiqida amerikalik tadqiqotchilar bilan, Zarafshon vohasidagi Karnabdan topilgan qalay konlarini o'rganishda germaniyalik olimlar bilan, Quyi Sirdaryo hududlarini o'rganishda fransuz va italyan olimlari bilan hamkorlikda ishlar olib borilgan. Tadqiqot ishlarida zamonaviy fan yutuqlaridan keng foydalanish ko'chmanchi chorvadorlarning hayot tarzi, shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini chuqurroq tahlil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston mustaqilligi yillarida tarixga e'tibor kuchaydi, uni har tomonlama chuqur tahlil qilish bilan bir qatorda uning yangi jihatlari yoritish, tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish masalalari ustuvor vazifa qilib belgilandi. Chorvachilik xo'jaligi bo'yicha tadqiqot ishlarining soni oshdi, shu bilan birga ko'chmanchi chorvadorlar tarixi ham yangi tadqiqotlar bilan boyidi. Xorazm vohasining Tuyamo'yin havzasi hududlaridan ko'chmanchi chorvadorlarning mo'z-qo'rg'onlari aniqlandi, Ustyurtning sharqiy qismidan ham qishlov joylari aniqlanib, mo'z – qo'rg'onlar klassifikatsiya qilindi.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-avgustdagi PF-158-sonli "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 16-yanvardagi F-5181-sonli "Moddiy – madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoyishida hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-martdagi "Moddiy-

madaniy meros obyektlari va YUNESKOning umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 119-sonli qarorlarida belgilangan xalqimizning boy tarixi, madaniy merosini ilmiy o‘rganish, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uni targ‘ib qilish kabi fan va ta‘lim sohalariga tegishli vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi¹.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot respublika ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorazm vohasi va uning atrofidagi ko‘chmanchi chorvador qabilalarning moddiy yodgorliklarini o‘rganish XX asrning 30-yillaridan boshlangan. Bunda S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi a‘zolari tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari muhim ahamiyat kasb etgan. Ko‘chmanchi chorvadorlar tarixining o‘rganilishini geografik jihatdan 3 guruhga bo‘lib tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Qadimgi Xorazmning shimoli-sharqiy chegaralaridagi yodgorliklar.
2. Qadimgi Xorazmning shimoli-g‘arbiy chegaralaridagi yodgorliklar.
3. Qadimgi Xorazmning janubiy chegaralaridagi yodgorliklar.

Qadimgi Xorazmning shimoli-sharqiy hududi ya‘ni Quyi Sirdaryo va Orol dengizining sharqiy qismida yashovchi chorvadorlarning moddiy yodgorliklari tadqiqi boshqa hududlarga qaraganda ilgari boshlangan. 1946-yilda S.P.Tolstov Chirik – Rabot yodgorligini topgan va uni mil. avv. V asrga oid massaget qabilalarining markaziy shahri deb ko‘rsatgan. U yodgorlik atrofidan 6 ta mustahkamlangan shahar, qishloqlar va yirik mozor-qo‘rg‘onlarni aniqlagan².

XX asrning 60 – 70-yillarida Sirdaryoning qadimiy o‘zanlari – Inkardaryo, Jonidaryo, Quvondaryo (Eskidaryoliq) hududlarida tadqiqot ishlari olib borilgan. Mil. avv. VII-V asrlarga oid sak qabilalarining 60 dan ortiq makonlari va bir nechta mozor-qo‘rg‘onlari aniqlangan³. Mil. avv. X-VIII asrlarga oid bo‘lgan Tegesken mozor-qo‘rg‘onlari S.P.Tolstov, M.A.Itina, L.M.Levina, O.A.Vishnevskayalar tomonidan o‘rganilgan⁴. 1962-yilda M.A.Itina tomonidan Uygarak va Janubiy Tagisken yodgorliklarida tadqiqot ishlari olib borilgan.

¹ “Ўзбекистон – 2030 стратегияси” тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 11.09.2023 йилдаги ПФ-158-сон. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>; 2018 йил 16 январь Ф-5181-сон “Моддий-маданий ва археология мероси объекtlарини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармойиши [электрон ресурс] <https://lex.uz/docs/3506332>; Вазирлар Маҳкамасининг 2021-йил 3-мартдаги “Моддий маданий мерос объекtlари ва ЮНЕСКОнинг умумжаҳон мероси рўйхатига киритилган худудлар муҳофазасини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 119-сонли Қарори. <https://lex.uz/docs/5320217>.

² Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М. – Л., 1948. – С. 98-99.; о‘sha muallif. Древний Хорезм. – М., 1948. – С. 346-348.; Вайнберг Б.И., Левина Л.М. Чирикратская культура // Низовья Сырдарьи в древности. Вып. 1. – М., 1993.

³ Левина Л.М. К истории исследований Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в Восточном Приаралье/Приаралье в древности и средневековье. – Москва: Восточная литература, 1998. – С. 45.

⁴ Толстов С.П. Результаты историко-археологических исследований 1961 г. на древних руслах Сыр-Дарьи (в свете проблемы их освоения) // СА. – № 4. 1962.; Толстов С.П., Итина М.А. Саки низовьев Сыр-Дарьи (по материалам Тагискена) // СА. – №2, 1966.; Вишневская О.А., Итина М.А. Ранние саки Приаралья / Проблемы скифской археологии. – М., 1971.; Левина Л.М. Поселения VII–V вв. до н.э. и “шлаковые курганы” южных

1973-yilda Uygarakda olib borilgan arxeologik ishlarining natijasi O.A.Vishnevskaya tomonidan nashr qilingan monografiyada o‘z aksini topgan⁵. Janubiy Tagisken va Uygarak mozor-qo‘rg‘onida olib borilgan antropologik tadqiqotlar natijasida bu ikki hudud aholisining bir-biriga qarindosh ekanligi aniqlangan⁶.

XX asrning 40 – 60-yillarida Qadimgi Xorazm vohasida bronza va ilk temir davrida ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi qabilalar yashagan Suvyorgan va Tozabog‘yob madaniyati, mil. avv. IX-VIII asrlarda Amudaryoning Oqchadaryo o‘zani bo‘ylarida shakllangan Amirobod madaniyati tadqiq qilingan⁷.

XX asrning 70-yillari V.N.Yagodin boshchiligida O‘zRFA Qoraqalpog‘iston bo‘limi xodimlari keng tadqiqot ishlarini olib bordilar. Tadqiqot jarayonida mil. avv. VI-V asrlardan milodiy III-IV asrlarga oid ko‘plab arxeologik yodgorliklar aniqlangan⁸. Choshtepa, Oqtepa yodgorliklari, shular jumlasidan⁹.

1989 – 1990-yillarida Ustyurtning janubi - sharqiy chekkasida joylashgan Qozibobo I yodgorligi tadqiq qilingan. Bu ilk ko‘chmanchi qabilalarning mozor – qo‘rg‘onlari orasida eng kattasi bo‘lib, u V.N.Yagodin tomonidan to‘liq tadqiq qilingan.

XXI asrning boshlarida Devkeskan III, IV, Qozibobo I, II va Sizliuy yodgorliklari tadqiq qilingan¹⁰. Tadqiqotlar natijasida ko‘chmanchi chorvadorlarning hududni o‘zlashtirish jarayoni, ularning xronologiyasi, ilk temir davri yodgorliklari, Qadimgi Xorazm hududining ko‘chmanchi chorvadorlar turmush tarziga ta’siri kabi masalalar keng yoritilgan.

I bobning 2 – 3– bo‘limlarida yozma manbalarning lokalizatsiyasi va arxeologik tadqiqot ishlari natijalari tahlil qilingan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Urganch davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Qadimgi Xorazm davlati va uning chegara hududlarida istiqomat qilgan ko‘chmanchi chorvadorlarning hududiy joylashuvi va ularning hayot tarzini yozma va arxeologik ma’lumotlar asosida tahlil qilishdan iborat.

районов Сырдарьинской дельты / Кочевники на границах Хорезма. ТХАЭЭ. Т.11. – М. 1979; Вишневская О. А. Культура сакских племен низовьев Сырдарьи (по материалам Уйгарака). // ТХАЭЭ. Т. VIII. – М. 1973.

⁵ Вишневская О. А. Культура сакских племен низовьев Сырдарьи (по материалам Уйгарака) // ТХАЭЭ. Т. VIII. – М. 1973.

⁶ Итина М. А., Яблонский Л. Т. Саки Нижней Сырдарьи (по материалам могильника Южный Тагискен). – М. 1997.

⁷ Толстов С. П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – Москва: Наука, 1962. – С. 68-77.

⁸ Ягодин В. Н. Памятники кочевых племён древности и средневековья // Древняя и средневековая культура Юго-Восточного Устюрта. – Ташкент: ФАН, 1978. – С. 79-198.; Ягодин В. Н., Китов Е. П., Мамедов А. М., Жамбулатов К. А. Степные племена на северо-западных границах Хорезма в VI-II вв. до н. э. – II-IV вв. н. э. – С. 26.

⁹ Рапопорт Ю. А., Трудновская С. А. Курганы на возвышенности Чаш тепе // Кочевники на границах Хорезма. ТХАЭЭ. Т. XI. – Москва: Наука, 1979. – С. 151-166.

¹⁰ Ягодин В. Н. Курганный могильник Дэвкескен-4 // Археология Приаралья. Вып. 4. – Ташкент, 1990. – С. 28-82.; Ягодин В. Н., Китов Е. П., Ягодин В. В. Кочевники позднесарматского времени Юго-Восточного Устюрта (по материалам могильника Казыбаба I). Вестник Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан. Вып. 4 (245). – Нукус. Ълим, 2016. – С. 146-151.

Tadqiqotning vazifalari:

qadimgi davrda Amudaryo quyi havzasining tabiiy geografik holati va ko'chmanchi chorvachilik xo'jaligining shakllanish omillarini yoritish;

yozma manbalardagi ma'lumotlarni interpretatsiya qilish;

ko'chmanchi chorvadorlar tarixining arxeologik jihatdan o'rganilishini tahlil qilish;

ilk temir davrida yashagan qabilalarning hududiy joylashuvini aniqlash;

mil. avv. VI - IV asrlarda hududda sodir bo'lgan o'zgarishlarni tahlil qilish;

massagetlar va ularning ijtimoiy kelib chiqishi bo'yicha munozaralar tahlilini yoritish;

boshqaruv tizimi va uning o'ziga xos jihatlarini aniqlash;

ko'chmanchi chorvachilikning shakllanishi, taraqqiyoti va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish;

ko'chmanchi chorvadorlarning jangovarlik qobiliyati masalalari tadqiqotini amalga oshirish.

Tadqiqot obyektini Qadimgi Xorazm davlati va uning chegara hududlaridagi ko'chmanchi chorvadorlar to'g'risidagi arxeologik ma'lumotlar, yozma manbalar, ilmiy-tarixiy adabiyotlar tashkil etadi.

Tadqiqot predmetini ko'chmanchi chovadorlarning joylashgan hududlari, ularning migratsiyasi, ijtimoiy turmush tarzi, iqtisodiy munosabatlari va rivojlanish jarayonlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida xolislik va tizimli yondashuv tamoyillari, tarixiy taqqoslash, qiyosiy solishtirish, analiz, sintez, tizimli tahlil, muammoli-xronologik, topologik, tipografik kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Xorazm vohasi atrofida yashagan ko'chmanchi chorvadorlar Qadimgi Xorazm davlati bilan faol iqtisodiy-savdo aloqalarini olib borganligi va ularning turmush tarziga Qadimgi Xorazm aholisining ta'siri bo'lganligi aniqlandi;

Amirobod va Quyoisoy madaniyatini yaratgan aholining yozma manbalarda bayon qilingan massagetlar ekanligi, ularning turli qabilalardan tashkil topganligi, turli davrlarda turli nom bilan tarix sahnasiga chiqqanligi arxeologik tadqiqotlar asosida asoslandi;

mil. avv. IV asrdan boshlab ko'chmanchi chorvadorlarning harakatlari jonlanganligi tufayli Qadimgi Xorazm davlatining chegaralari bo'ylab mustahkam mudofaa tizimining barpo etilganligi aniqlandi;

ko'chmanchi chorvadorlarning boshqaruv tizimi erkin konfederativ boshqaruv bo'lganligi, hokimiyatni boshqaruv avloddan avlodga o'tganligi va hokimiyatni boshqarishda erkaklar va ayollarning teng huquqli bo'lganligi dalillandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Xorazm vohasi va uning atrofida ko'chmanchi chorvachilikning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan omillar mavjudligi ko'rsatildi va yozma manbalarda turli qabilalar nomlarining kelishi davriy xususiyat kasb etib, ko'chmanchilar orasida qaysi qabila siyosiy jihatdan yuqori mavqieni egallagan bo'lsa, shu qabila haqida yozma manbalarda bayon qilinganligi tahliliy jadval asosida ishlab chiqildi;

tadqiqot davomida yig'ilgan va tahlil qilingan tarixiy - arxeologik, yozma materiallardan olingan ma'lumotlar hamda ilmiy xulosalar teleradiokanallarda ko'rsatuvlar tayyorlashda, oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun "Ko'chmanchi chorvadorlarning turmush tarzi" mavzusida uslubiy qo'llanma ishlab chiqishda asos bo'ladi;

ilmiy ish Xorazm vohasi va uning atrofidagi ko'chmanchi chorvadorlarning yashash hududlari va turmush tarzini yoritishda tarixiy ma'lumotlarning manbahunoslik bazasini yanada kengaytirdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot ishining tarix va arxeologiya fanida tan olingan tadqiqot usullari hamda zamonaviy ilmiy-nazariy yondoshuvlarga tayangan holda bajarilganligi, ko'p turdagi tarixiy va arxeologik adabiyotlardan foydalanilganligi, arxeologik materiallar, xulosa, taklif va tavsiyalarning huquqiy-me'yoriy hujjatlarga asoslangan holda amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

tadqiqotning ilmiy natijalaridan "O'zbekiston tarixi"ning qadimgi davr qismini yozishda, ko'chmanchi chorvadorlar tarixini tadqiq qilishda, uslubiy yondoshuv va nazariy xulosalardan tarix, arxeologiya, manbahunoslik fanlari yo'nalishlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda foydalanish mumkinligi uning ilmiy ahamiyatini belgilaydi;

tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekistonning qadimgi davrdagi qo'shni mamlakatlar bilan aloqalarini tadqiq va targ'ib qilish, turizm sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan ma'lumotlar bilan boyitish, o'zbek xalqi tarixiy va madaniy merosini asrash, uni boyitib borish, milliy mafkurani shakllantirishda maqsadli davlat dasturlarining bajarilishiga, shuningdek, o'zbek xalqi madaniyatiga oid bilimlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot Xorazm vohasi va uning atrofidagi ko'chmanchi qabilalarning hududiy joylashuvi, hayot tarzi, yodgorliklarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, amaliy taklif va tadqiqot natijalari asosida:

Xorazm vohasi atrofidagi ko'chmanchi chorvadorlar Qadimgi Xorazm davlati bilan faol iqtisodiy-savdo aloqalarini olib borganligi va ularning turmush tarziga Qadimgi Xorazm aholisining ta'siri bo'lganligi aniqlandi. Qo'lga kiritilgan xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali DM tomonidan 2024-yil fevral va avgust oylarida efirga uzatilgan "Ta'lim va taraqqiyot", "O'zbekiston yoshlari", "Millat va ma'naviyat" dasturlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradio kompaniyasining 2024-yil 16-sentyabrdagi 04-36-1023-son ma'lumotnomasi). Natijada, ular teletomoshabinlarning Xorazm vohasi atrofidagi ko'chmanchi chorvadorlarning turmush tarziga oid tasavvurlarini kengaytirishga imkon bergan;

Amirobod va Quoysoy madaniyatini yaratgan aholining yozma manbalarda bayon qilingan massagetlar ekanligi, ularning turli qabilalardan tashkil topganligi, turli davrlarda turli nom bilan tarix sahnasiga to'g'risidagi arxeologik tadqiqotlarga oid ilmiy ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali DM tomonidan 2024-yil fevral va avgust oylarida efirga uzatilgan "Ta'lim va taraqqiyot", "O'zbekiston yoshlari", "Millat va ma'naviyat" dasturlari

ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradio kompaniyasining 2024-yil 16-sentabrdagi 04-36-1023-sonli ma'lumotnomasi). Natijalarning qo'llanilishi teletomoshabinlarni arxeologik tadqiqotlar natijalardan unumli foydalanish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida yaqindan tanishtirishga xizmat qilgan;

tadqiqot ishida mil. avv. IV asrdan boshlab ko'chmanchi chorvadorlarning harakatlari jonlanganligi tufayli Qadimgi Xorazm davlatining chegaralari bo'ylab mustahkam mudofaa tizimining barpo etilganligi aniqlangan bo'lib xulosa va ilmiy yangiliklardan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida 2021-2022-yillarda bajarilgan "O'zbek harbiy san'ati tarixi" nomli fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining 23-sentabr 10/2026-sonli dalolatnomasi). Natijada, tadqiqot xulosalari va ilmiy yangiliklaridan loyiha doirasida ishlab chiqilgan monografiya mazmunini boyitishda foydalanilgan;

ko'chmanchi chorvadorlarning boshqaruv tizimi erkin konfederativ boshqaruv bo'lganligi, hokimiyatni boshqaruv avloddan avlodga o'tganligi va hokimiyatni boshqarishda erkaklar va ayollar teng huquqli bo'lganligining dalillanishi bilan bog'liq xulosa va ilmiy yangiliklardan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida 2021 – 2022- yillarda bajarilgan "O'zbek harbiy san'ati tarixi" nomli fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining 23-sentabr 10/2026-sonli dalolatnomasi). Natijada, ular talabalarda ko'chmanchi chorvadorlarning boshqaruv tizimi to'g'risidagi bilimlarini boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 5 ta ilmiy anjuman va seminarlarda, shu jumladan, 2 ta xalqaro konferensiya va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida aprobatsiyadan o'tgan.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shulardan 1 tasi xorijiy nashrlarda, 8 tasi respublika nashrlarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning tadqiqot qismi 126 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Xorazm vohasida ko'chmanchi chorvachilik xo'jaligining shakllanish omillari va ko'chmanchi chorvadorlar tarixining**

o‘rganilishi” deb nomlangan bo‘lib u uch paragrafdan iborat. Birinchi paragraf *“Qadimgi davrda Amudaryo quyi havzasining tabiiy geografik holati va ko‘chmanchi chorvachilik xo‘jaligining shakllanish omillari”* deb nomlangan bo‘lib, unda Qadimgi Xorazm vohasining geografik chegarasi, bugungi kundagi geografik hududi, tabiiy geografik sharoiti, ko‘chmanchi chorvadorlari yashagan hududlar, ko‘chmanchi chorvachilik xo‘jaligining shakllanishi uchun mavjud bo‘lgan omillar tahlili va chorvachilikning turlari bayon qilingan.

Qadimgi Xorazm davlatining deyarli butun chegaralari bo‘ylab ko‘chmanchi chorvadorlar istiqomat qilishgan. Qadimgi Xorazm hududi janubi-g‘arbda Qoraqum, shimoli-g‘arbda Ustyurt platosi, sharqda Qizilqum bilan chegaradosh bo‘lgan. Davlatning sharqiy tomonida joylashgan Sulton Uvays tog‘ tizmasi chorvachilik xo‘jaligini rivojlantirishga qulay bo‘lgan. Xorazm vohasining janubiy tomonida Amudaryoning o‘ng qirg‘oq hududi ham cho‘ldan iborat bo‘lib, u ko‘chmanchi chorvadorlarning qishlov hududi bo‘lgan.

Qadimgi Xorazm davlati ko‘chmanchi chorvadorlar bilan qo‘shnichilik munosabatlarini o‘rnatgan. Ular bilan tinch qo‘shnichilik, savdo aloqalari o‘rnatilgan bo‘lsa-da, ularning hujumlaridan himoyalaniish uchun chegara shaharlar tizimini hosil qilgan va ularning mudofaasini mustahkamlagan¹¹.

Xorazm vohasining shimoliy qismida Orolbo‘yi deltasining Oqdaryo, Erkindaryo, Ko‘hnadaryo, Toldiqdaryo, Qozoqdaryo kabi tarmoqlari Orol dengiziga quyilgan¹². Mil. avv. I ming yillikning ikkinchi yarmida Amudaryo suvining asosiy qismi Orol dengiziga quyilgan, bu yer esa ko‘chmanchi chorvadorlarning yashashi uchun qulay hududga aylangan.

O‘rta Osiyodagi eng yirik cho‘l Qizilqum hisoblanadi. Uning maydoni taxminan 298 ming kv.km. tashkil etadi. U yerda o‘simlikning 900 ga yaqin turi aniqlangan bo‘lib, shundan 226 turi (25 %) O‘rta Osiyo uchun xos, 34 turi (3,5 %) faqat Qizilqumga xos o‘simliklardir¹³. Ular oq va qora saksovul, cherkez, qandim, chogon, borjok (qizilcha), shuvoq, sarsazan, qorasho‘ra, shohilak, yulg‘un va boshqalar. O‘simliklar cho‘l hududiga moslashgan bo‘lib, ular chorva uchun yaxshi ozuqa hisoblangan. Qizilqumda mayin junli qorako‘l qo‘ylari boqilgan.

Qoraqum Osiyo hududidagi eng katta cho‘l bo‘lib, O‘zbekistonning janubi-g‘arbida, Turkmaniston bilan chegaradosh hududda joylashgan. Uning umumiy maydoni 400 ming km². Qoraqumning markaziy va janubi-sharqiy qismlari asosan pasttekisliklardan iborat. Uning yaylovlari yil bo‘yi o‘simliklarga boy bo‘lib turadi. Ob-havoning yil davomida uzoq vaqt mo‘tadil haroratda bo‘lishi cho‘lning chorvadorlar tomonidan keng o‘zlashtirilishiga olib kelgan.

Ko‘chmanchi chorvadorlar ot, qo‘y va echki kabi chorva mollari uchun yaylov izlab doimiy ravishda ko‘chib yurishgan. Ularning uylari – o‘tovi ham doimo ko‘chib yurishga moslashgan. Qadimgi davrda ko‘chmanchi chorvadorlarning uylari arava ustida qurilgan. Ular bilan doimo birga yurgan. Bu ularning tez harakatlanishida qulay edi.

¹¹ Мамбетуллаев М. М. История и культура Южного Хорезма античной эпохи (города и поселения). IV в. до н. э.-IV в. н. э.: Автореферат. на соис. уч. ст. докт. ист. наук. – Ташкент, 1994.

¹² Вайнберг Б. И. Этногеография Турана. – М., 1990. – С. 217.

¹³ Миллий энциклопедия. 10-том. – Тошкент, 2005. – Б. 650-651.

Qadimgi davrda chorvadorlar ko‘chmanchi chorvachilikdan o‘troq turmush tarziga o‘tishgan. Bu esa, chorvachilikning turli xil turlari tarkib topishiga olib kelgan. Chorvadorlarning iqtisodiy faoliyati va o‘troqlik darajasiga qarab chorvachilikning quyidagi turlari shakllangan:

- ko‘chmanchi chorvachilik;
- yarim ko‘chmanchi chorvachilik;
- yaylov chorvachiligi.

Ko‘chmanchi chorvadorlar chorvachilik bilan bir qatorda savdo va hunarmandchilik bilan ham shug‘ullanishgan. Har bir qabilaning o‘zi yashaydigan va ko‘chib yuradigan hududi bo‘lgan. Chorvadorlar chorvasining ko‘payishi yoki qurg‘oqchilikning bo‘lishi ularning yashayotgan hududlarini tashlab, boshqa hududlarga borib o‘rnashishlariga olib kelgan. Hudud va yaylov uchun ko‘pincha, o‘zaro janglar bo‘lib turgan. Dehqonchilik vohalariga ham bosqinchilik yurishlari qilib turganlar. Qadimgi davlatlar ulardan himoyalaniش uchun chegaralarining himoyasini mustahkamlaganlar.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi “*Yozma manbalardagi ma’lumotlarning interpretatsiyasi*” deb nomlanib, unda “Avesto”, Old Osiyo, yunon, rim va xitoy manbalaridagi bayoni talqin etilgan. “Avesto”da ko‘chmanchi chorvadorlar “tur” deb atalgan. “Avesto” yaratilgan jamiyatda chorvachilik xo‘jaligi yuqori mavqeiga ega bo‘lgan. Ular qudratli chorvador, harbiy aslzoda deb ko‘rsatilib, jangovar jasoratlari bayon qilingan. “Avesto”ning “Yasht” qismida Axuramazda barcha hojat va tadbirlarga yo‘l ko‘rsatuvchi deb, o‘zining 20 ta muqaddas nomini keltiradi. Shu muqaddas nomlar ichida ikkinchi bo‘lib “chorvador” aytib o‘tilgan. Bu jihat ham chorvachilikning o‘sha davrlarda juda ulug‘langanligini ko‘rsatadi.

“Avesto”da bayon qilingan turlar, tadqiqotchilar fikricha, Sirdaryoning o‘rta oqimi sharqiy tomonlarida, Orol dengizi bo‘ylarida ko‘chib yurganlar. yaratilgan jamiyatda chorvachilik xo‘jaligi yuqori mavqega ega bo‘lgan. Chorvadorlar qudratli chorvador, harbiy aslzoda deb ko‘rsatilib, ularning jangovar jasoratlari bayon qilingan. “Avesto”ning “Yasht” qismida Axuramazda barcha hojat va tadbirlarga yo‘l ko‘rsatuvchi deb, o‘zining 20 ta muqaddas nomini keltiradi¹⁴. Shu muqaddas nomlar ichida ikkinchi bo‘lib “chorvador” nomi sanab o‘tilgan. Bu jihat ham chorvachilikning o‘sha davrlarda juda ulug‘langanligini ko‘rsatadi.

“Avesto”da bayon qilingan turlar, tadqiqotchilar fikricha, Sirdaryo o‘rta oqimining sharqiy tomonlarida, Orol dengizi bo‘ylarida ko‘chib yurganlar. Tadqiqotchilar bu fikrni antik davr mualliflarining asarlari va arxeologik tadqiqot natijalari bilan ham asoslashadi.

O‘rta Osiyo hududida yashagan qabilalar Old Osiyodan topilgan yozma manbada “ishkuza, saxi” deb ko‘rsatilgan. Ahamoniylar ularni “sak”, qadimgi rim va yunon yozma manbalarida “massaget”, “skif”, xitoy yozma manbalarida “xu”, “di”, “dingling”, arxeologik adabiyotlarda “andronova”, “yog‘ochband”, “tozabog‘yob”, “suvyorgan”, “amirobod”, “quyisoy” madaniyatlari nomlari ostida uchraydi¹⁵.

O‘rta Osiyo hududidagi ko‘chmanchi qabilalar haqida ahamoniylar davriga oid

¹⁴ Абдолниёзов Б., Исҳоқов М. Авесто ва қадимги чорвачилик. – Тошкент, 2008. – Б.60.

¹⁵ Эгамбердиева Н.А. Амударё ҳавзаси ҳудудларининг қадимги маданияти (мил. авв. VIII – мил. IV асрлар). Тарих фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. – Тошкент, 2021. – Б.137.

yoʻzma manbalar – Behistun, Persopol va Naqshi Rostamdagi qoya toshlarda maʼlumotlar saqlanib qolgan. Ularda koʻchmanchi chorvadorlar – saklarning imperiyaga qaramligi bayon qilingan va tashqi qiyofalari boʻrtma tarzda tasvirlangan¹⁶.

Saklarning oʻsha davrda yuqori harbiy salohiyatga ega ekanligini yunon manbalari ham asoslaydi. Jumladan, Gerodot Kir II ning harbiy yurishlarida unga qarshi turgan xalqlar haqida quyidagicha bayon qilgan: “Bobil, Baqtriya xalqi, saklar va misrliklar toʻsiq boʻlib turganlar”, deb yozib qoldirgan¹⁷.

Ktesiy asarida saklar mohir jangchi va kamonchilar sifatida tilga olingan. Ular mohir jangchi sifatida ahamoniylar imperiyasi armiyasi tarkibida boʻlganligi sababli ular haqida maʼlumotlar berilgan¹⁸. Ksenofont ham oʻz asarida saklarning jangchilari haqida yozib qoldirgan. Polibiy, Pliniy, Ptolomey asarlarida sak va massaget qabilalarining turlicha nomlari saqlanib qolgan. Strabon Gekatey maʼlumotlaridan foydalangani holda massagetlarni 4 guruhga ajratgan: tekislikdagi, botqoqlikdagi, orolchalardagi va togʻlarda yashaydigan¹⁹. Strabon massagetlarning sharqiy chegarasini koʻrsatishda Eratosfen maʼlumotlaridan foydalanadi. U massagetlar Oks boʻylab joylashganlar, Sugʻdiyoning gʻarbida deb koʻrsatadi²⁰.

Aleksandr Makedonskiyning Oʻrta Osiyoga bostirib kirgan vaqtlardagi koʻchmanchi qabilalar haqida yunon mualliflari yozib qoldirishgan. Kvint Kursiy Ruf maʼlumoticha, Xorazm massaget va daxlar bilan birlashgan²¹. Arrian daxlar haqida toʻliq maʼlumot beradi²². U daxlarni Tanias (Sirdaryo) daryosi boʻyida yashaydi deb koʻrsatadi. Strabon daxlarni Kaspiy dengizining sharqida qirgʻoq boʻyidan Ariyaning shimolidagi davlat hududigacha boradi, ularning sharqdagi qoʻshnisi massagetlar, janubida choʻllik boʻlib, u Girkaniyani Parfiyadan ajratib turadi deb koʻrsatadi²³.

Mil. avv. IV asr oxiri – III asrning boshlarida Girkaniya va Parfiyaning shimolida koʻchmanchi dax qabilalari dehqonchilik hududlariga bosqinchilik yurishlari qilib turadilar. Bu davrda Oʻrta Osiyo hududida salavkiylar davlati hukmron boʻlgan. Parfiya davlatiga Arshak boshchiligidagi daxlar bostirib kirib, u yerni egallashadi. Mil. avv. 228-yilda sharqda Selevka II yurish qilgach, Arshak apasiaklarga oldiga qochib ketadi. Polibey maʼlumotiga koʻra, apasiaklar Oks (Amudaryo) va Tanais (Sirdaryo) oraligʻida yashaganlar. Yustin maʼlumoticha, Arshak apasiak yoki boshqa koʻchmanchi qabilalar yordamida Selevka II ni yengadi va yana Parfiya hududini egallagan.

¹⁶ https://ru.wikipedia.org/wiki/Behistunskaya_nadpisny.

¹⁷ Геродот. История в девяти книгах. Том I Пер. и примеч. Г.А. Стратановского. – Ленинград: Наука, 1972. – С.153.

¹⁸ Пьянков И.В. Средняя Азия в известиях античного историка Ктесия. – Душанбе, 1975. – С. 70, 71, 74-77, 121, 183, 184.

¹⁹ Страбон. География. В 17-ти книгах. Перевод и комментарии Г.А.Стратановского. – Москва: Наука. 1964. XI, 8, 6, 7.

²⁰ Страбон, XI, 8, 8.

²¹ Квинт Курций. История Александра Македонского. С приложением сочинений Диодора, Юстина, Плутарха об Александре. – Москва: МГУ, 1993. VIII, 1, 8.

²² Арриан Флавий. Поход Александра. Пер. М.Е.Сергеенко, вступ. ст. Крюгера О.О. – СПб.: Алетейя, 1993. III, 28.

²³ Страбон. XI, 7, 1; 8, 1-3; 9, 2.

Mil. avv. III asrda hozirgi Toshkent vohasi va Janubiy Qozog‘iston dashtlarida ko‘chmanchi aholi – saklar Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimida yashaganlar²⁴. Bu hududlarning lokalizatsiyasi bo‘yicha V.V. Bartold, M.E.Masson, S.P.Tolstovlar o‘z fikrlarini berishgan. Yuegyanning Qadimgi Xorazm vohasidagi Urganch toponimi bilan bog‘lanishi tadqiqotimiz uchun muhim sanaladi. Bu ma‘lumot bilan arxeologik tadqiqot ishlarini bog‘lab ko‘radigan bo‘lsak, Qadimgi Xorazm davlatida mil. avv. II asrga oid yodgorliklarning madaniy qatlamida jang izlari kuzatiladi. Shu davrga oid ko‘pchilik arxeologik yodgorliklar vayron qilingach, ularning tashlandiq holga kelganligini ham ko‘rishimiz mumkin. Tadqiqot jarayonida ma‘lum bo‘ldiki, Qadimgi Xorazm davlati chegaralarida yashab kelgan ko‘chmanchi qabilalar – sak va massagetlar o‘zlarining jangovar qobiliyati bilan ajralib turishgan.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi *“Ko‘chmanchi chorvadorlar tarixining arxeologik jihatdan o‘rganilishi”* deb nomlanib, unda ko‘chmanchi chorvadorlar tarixining arxeologik jihatdan o‘rganilishi geografik jihatdan 3 guruhga bo‘lib tahlil qilingan:

1. Qadimgi Xorazmning shimoli-sharqiy chegaralaridagi yodgorliklar.
2. Qadimgi Xorazmning shimoli-g‘arbiy chegaralaridagi yodgorliklar.
3. Qadimgi Xorazmning janubiy chegaralaridagi yodgorliklar.

Qadimgi Xorazmning shimoli-sharqiy hududlarining katta qismi Qizilqum bilan qoplangan. Unga Orol dengizining sharqiy sohillari, Sirdaryoning qadimiy o‘zanlari – Inkardaryo, Jonidaryo, Quvondaryo (Eskidaryoliq) hududlari kiradi. Bu hududlar va Amudaryoning Oqchadaryo o‘zani bo‘ylarida, Sulton Uvays tog‘i hududlarida ibtidoiy davrdan boshlab ko‘chmanchi qabilalar ko‘chib yurganlar. Ular Ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvador aholi uchun qishlov joylari ham sanalgan.

1962-yilda M.A.Itina tomonidan Uygarak va Janubiy Tagisken yodgorliklari o‘rganilgan. 1973-yilda O.A.Vishnevskaya tomonidan nashr qilingan monografiyada Uygarakda olib borilgan tadqiqot natijalari e‘lon qilingan²⁵. Tadqiqotlar orqali Janubiy Tagiskenning qadimgi saklarga tegishli mozor-qo‘rg‘on ekanligi aniqlandi. XX asrning 90-yillarida olib borilgan tadqiqotlar uning mil. avv. VII asrdan mil. avv. V asrlarga oidligini isbotladi. Janubiy Tagisken va Uygarak mozor-qo‘rg‘onida olib borilgan antropologik tadqiqotlar natijasida bu ikki hudud aholisining bir-biriga qarindosh ekanligi aniqlangan²⁶.

Sirdaryoning quyi oqimidagi Uygarak mozor-qo‘rg‘oni dastlab 1959-yilda XAEE a‘zosi kartograf N.I.Igonin tomonidan aerofoto tasviriga tushirish jarayonida aniqlangan²⁷. Shundan so‘ng Uygarak mozor-qo‘rg‘oni tadqiqi 1961, 1963 va 1965-yillarda olib borildi. 1965-yilgacha 70 ga yaqin mozor-qo‘rg‘onlar aniqlangan.

²⁴Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В трёх томах. Том II. – Москва-Ленинград, 1950. – С.150-151.

²⁵ Вишневецкая О.А. Культура сакских племен низовьев Сырдарьи (по материалам Уйгарака) // ТХАЭЭ. Т. VIII. – М., 1973.

²⁶ Итина М.А., Яблонский Л.Т. Саки нижней Сырдарьи (по материалам могильника Южный Тагискен). – М., 1997.

²⁷ Яблонский Л.Т., С.П.Толстов и изучение памятников ранних скотоводов Приаралья (сакская проблема) / Отзвуки Великого Хорезма. К 100-летию со дня рождения С.П. Толстова. Сборник статей. – М.: ИЭАРАН, 2010. – С.12.

Yodgorlik mil. avv. VII-V asrlarga oid bo‘lgan²⁸. Uygarakdagi mozor-qo‘rg‘onlarda aksariyat mayitlar yakka holda dafn etilgan. Bu yerdan “hayvonlar tasviri uslubi”da ishlangan ot abzali, saklarning bronza paykonlari, bronza va temirdan ishlangan xanjarlar, bronza ko‘zgu, turli bezak buyumlar, sopol idishlar va toshdan ishlangan kichik qurbongoh topilgan.

Quvandaryo va Eskidaryolik bo‘ylarda shakllangan Jetiasar yodgorligi dastlab S.P.Tolstov tomonidan 1948-yilda topilgan²⁹. U 1948 – 1949, 1951-yillarda S.P.Tolstov, M.A.Orlova, T.A.Jdanko, M.L.Levinalar tomonidan tadqiq qilingan. XX asrning 60-yillarida olib borilgan tadqiqotlar natijasida uning uchta rivojlanish bosqichlari aniqlandi va sopol buyumlari turkumlashtirildi³⁰. Jetiasar madaniyatiga tegishli barcha qal’a va qishloqlar mustahkam mudofaaga ega bo‘lgan. Jetiasar yodgorliklar atrofida ko‘plab dahma va mozor-qo‘rg‘onlar aniqlangan.

Mil. avv. X-VIII asrlarda Amudaryoning Oqchadaryo o‘zani bo‘ylarida Amirobod madaniyati shakllangan. Amirobod madaniyati Suvyorgan va Tozabog‘yob madaniyatining qorishuvi natijasida shakllangan. Amirobodliklar chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanishgan. Amirobodliklarning Yakka-Parson 2 makoni tadqiq qilingan³¹. Mil. avv. VIII-VII asrlarda Janubiy Oqchadaryo o‘zanida suvning kamaya borishi natijasida amirobodliklar o‘z turmush tarzini o‘zgartirib, ko‘chmanchilik turmush tarziga o‘tishgan³².

Mil. avv. VIII asrning oxiri – VII asrning boshlarida Sariqamish havzalarida suvning ko‘payishi natijasida bu hududga turli joylardan o‘troq va yarim ko‘chmanchi chorvadorlar kelib joylashganlar. Aholining bu yerga to‘planishi natijasida Quvisoy madaniyati shakllangan³³. Bu madaniyat XX asrning 70-yillarida V.I.Vaynberg tomonidan o‘rganilgan³⁴.

Janubiy Xorazm hududidan mil. avv. VIII-V asrlarga oid ko‘chmanchi chorvadorlar madaniyati – Meshekli va Uch o‘choq yodgorliklari topilgan³⁵. Bu yodgorliklar 2004-yilda S.R.Baratov boshchiligidagi Janubiy Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan o‘rganilgan³⁶. Uch o‘choq mozor-qo‘rg‘onlari mil. avv. VII asrdan milodiy VII asrga oid bo‘lib, ular o‘ziga xos tarzda bunyod etilgan. Meshekli

²⁸ Вишневская О. А. Культура сакских племен низовьев Сырдарьи (по материалам Уйгарака) // ТХЭЭ. т. VIII. – М., 1973.

²⁹ Толстов С.П. Древний Хорезм. – М., 1948. – С. 125-140.

³⁰ Левина Л.М. Керамика и вопросы хронологии памятников джетыясарской культуры / Материальная культура народов Средней Азии и Казахстана. – М. 1966.; o‘sha muallif: Керамика нижней и средней Сырдарьи в первом тысячелетии н.э. // ТХАЭЭ. Т. 7. – М., 1971.

³¹ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарга. – С. 68-77.

³² Ягодин В.Н. Генезис и формирование раннехорезмийской государственности / История государственности Узбекистана. Т. I. – Ташкент: Узбекистан, 2009. – С. 115.; Юсупов Х. Ю. Поселение эпохи поздней бронзы на Канга-гыре // Скотоводы и земледельцы Левобережного Хорезма. – Москва, 1991. – С. 109-112.

³³ Вайнберг Б.И. Этнография Турана в древности. – С. 23.

³⁴ Вайнберг Б.И. Куюсайская культура раннего железного века в Присарыкамьшской дельте Амударьи // УСА, 1975. Вып. 3.

³⁵ Баратов С.Р. Новые археологические материалы к истории древнего Хорезма. – С. 30-40.

³⁶ Баратов С.Р., Садуллаев Б.П. Новые археологические материалы к истории ранних кочевников древнего Хорезма // Материалы международной научно-практической конференции: «40 лет Южно-Казахстанской комплексной археологической экспедиции: Итоги и перспективы исследований, реставрации объектов раскопок, вопросы музеефикации памятников, развития туризма». Республика Казахстан. Шаулдер, 18-19 октября. – Алматы, 2012. – С. 226-246.

mozor-qo'rg'onlari orasidan etdan tozalangan suyaklar qo'yilgan mozar-qo'rg'onlar topilgan³⁷.

Amudaryoning o'rta oqimi qadimgi davrda Xorazm, Marg'iyona va Sug'dning chegaralari kesishgan hudud bo'lib, bu yerda Amudaryodan kechuv yo'llari o'tgan. Shu bilan birga, Amudaryoning o'ng va chap qirg'og'idagi tabiiy sharoit bir-biridan tubdan farq qilgan. Amudaryo o'rta oqimining o'ng qirg'og'ida Marg'iyona davlatining chegara hududi bo'lib, u yerda qal'alar bunyod etilgan. Chap qirg'og'i esa, cho'ldan iborat bo'lib, ko'chmanchi chorvadorlar yashagan³⁸.

Dissertatsiyaning **“Ko'chmanchi chorvadorlar tomonidan Orolbo'yi hududlarining o'zlashtirilish bosqichlari”** deb nomlangan ikkinchi bobi uch paragrafdan iborat. Birinchi paragrafda *“Ilk temir davrida yashagan qabilalarning hududiy joylashuvi”* masalasi tahlil qilingan. Ilk temir davrida Xorazm vohasining sharqiy qismida Oqchadaryo o'zanidan chiqarilgan Amirobod kanali hududidan chorvachilik va ibtidoiy dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalarning izlari topilgan³⁹. Amirobod sopol idishlari Burgutqal'a, Teshikqal'a, Jonbosqal'a, Bozorqal'a hududlaridan, Norinjon taqirligining shimoli-sharqida, Qo'sh-Parson va Yakka-Parson oralig'idagi yerlardan ham topilgan.

S.P.Tolstov Amirobod madaniyatini qoldirgan qabilani massagetlar, deb ko'rsatadi⁴⁰. Keyingi tadqiqotlarda bu jihatga kam e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, ba'zi arxeolog olimlar S.P.Tolstovning fikriga qo'shiladilar⁴¹. Tadqiqot ishida amirobodliklarning turmush tarzi keng bayon etilgan. Mil. avv. VIII-VII asrlarda Janubiy Oqchadaryo o'zanida suvning kamayishi natijasida amirobodliklar bu hududlarni tashlab ketishgan⁴². Mil. avv. VIII asrning oxiri – VII asrning boshlarida Sariqamish havzalarida suv ko'paygan. Suvning ko'payishi bilan bu yerga turli hududlardan o'troq, yarim o'troq va yarim ko'chmanchi chorvador qabilalari kelib joylashganlar. Ular Quvisoy madaniyatiga asos solganlar⁴³. Quvisoy madaniyati mil. avv. VIII-V asrlarga oid bo'lib, uning aholisi yarim yerto'la, chaylalarda yashab, chorvachilik, lalmikor dehqonchilik, hunarmandchilikning – metallurgiya, kulolchilik, suyakka va feruza toshga ishlov berish sohalari bilan shug'ullanishgan⁴⁴.

Xorazm vohasining shimoli-g'arbiy qismida, ya'ni Ustyurt platosida ko'chmanchi chorvadorlarning moddiy yodgorliklari ko'plab topilgan. Ustyurt – Orol va Kaspiy dengizlari oralig'ida joylashgan.

³⁷ Баратов С.Р. Новые данные по археологии Южного Хорезма // Археология Узбекистана, 2013. – С. 43-44.; Баратов С.Р. Новые материалы к археологии древнего Хорезма // Древние цивилизации на Среднем Востоке. Археология, история, культура (Материалы международной научной конференции, посвященной 80 летию Г.В. Шишкиной). – Москва, 2010. – С.18.

³⁸ Бурханов А.А. Города и поселения Дарганского оазиса левобережья Амударьи в системе древних и средневековых тюрково – караванных путей (по материалам археологических исследований в Лебапском велаяте Туркменистана) // Вестник Новосибирского государственного университета. Вып. 7. 2015. – С. 174.

³⁹ Баратов С.Р. Некоторые проблемы археологических исследований древних культур Хорезма. – С. 25.

⁴⁰ O'sha asar. – В. 68.

⁴¹ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – С. 68-77.

⁴² Ягодин В.Н. Генезис и формирование раннехорезмийской государственности. – С. 115.; Юсупов Х.Ю. Поселение эпохи поздней бронзы на Канга-гыре // Скотоводы и земледельцы Левобережного Хорезма. – Москва, 1991. – С. 109-112.

⁴³ Вайнберг Б.И. Этнография Турана в древности. – С. 23.

⁴⁴ Вайнберг Б.И. Памятники куосайской культуры. – С. 23.

Ustyurt hududida ko‘chib yurgan chorvadorlarning arxeologik yodgorliklari V.N.Yagodin tomonidan tadqiq qilingan. Qozibobo-I mozar-qo‘rg‘onlarini o‘rganish natijasida undan foydalanishning 3 ta bosqichi – “savromat bosqichi”, sarmat davri va so‘nggi sarmat davri aniqlangan⁴⁵.

Janubiy Xorazm hududidan mil. avv. VIII-V asrlarga oid ko‘chmanchi chorvadorlar madaniyati – Meshekli va Uch o‘choq yodgorliklari topilgan⁴⁶. Bu yodgorliklar saklar, ya’ni avtoxton chorvador qabilalarining qabrlari hisoblanib, ular Tuyamo‘yin havzasi bo‘ylarida joylashgan⁴⁷. Ularning qabrlari Quysisoy madaniyatidan farq qilgan. Meshekli mozar-qo‘rg‘onlarining usti toshlar bilan qoplangan. Mazar-qo‘rg‘onlarining balandligi 150 sm. diametri 15 metr qilib qurilgan. Qo‘rg‘onlar 3-7 tagacha guruh qilib bunyod etilgan.

Ilk temir davrida Xorazm vohasida yarim o‘troq chorvadorlar – amirobodliklar, quysoyliklar va ko‘chmanchi chorvadorlar – meshekli madaniyati aholisi yashagan. Amirobodliklar va quysoyliklarda chorvachilik xo‘jaligi rivojlangan bo‘lib, ular qair dehqonchilik, hunarmadchilik bilan ham shug‘ullanganlar.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi “*Mil. avv. VI-IV asrlarda hududda sodir bo‘lgan o‘zgarishlar tahlili*” deb nomlangan va bu bo‘limda Qadimgi Xorazm tarixidagi eng munozarali masala – ilk shaharsozlik madaniyatining shakllanishi tahlil qilingan va bu jarayonda chorvadorlarning o‘troqlashuvi bilan bog‘liq ekanligi yozma va arxeologik manbalar asosida yoritilgan.

Tadqiqotda Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasining shakllanishida ikki xil omil muhim rol o‘ynaganligi tahlil qilinadi. Ya’ni o‘troqlashgan chorvador aholi o‘zlarini va chorvalarini shimoldan qishlovga keladigan ko‘chmanchi chorvadorlardan himoya qilish uchun mustahkam mudofaaga ega bo‘lgan qal’ani bunyod etishgan⁴⁸. Ikkinchisini janubdan kelgan aholi tomonidan hududning o‘zlatirilishi, aholining dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanishi va ular tomonidan bunyod etilgan Xumbuztepa, Xazorasp qal’alar orqali ko‘rsatish mumkin.

Dissertatsiyada ahamoniylar tomonidan hududning egallanish masalasi ham yoritib berilgan. Bunda ahamoniylarning Xorazm vohasining janubi-g‘arbiy tomonidan bostirib borganliklari asoslangan. Tadqiqotchilar fikricha, mil. avv.V asrning oxiri va IV asrning boshlarida Xorazm davlati ko‘chmanchi chorvadorlar yordamida mustaqillikni qo‘lgan kiritgan. Qadimgi Xorazm davlatining ko‘chmanchi qabilalar bilan tuzgan ittifoqi natijasida Ustyurt hududlari chorvadorlar uchun xavfsiz qishlov uchun imkoniyatli yerlarga aylandi. Yuqoridagi fikrlarni to‘ldirgan holda V.N.Yagodin mil. avv.V asrning oxirlari va mil. avv. IV asrning boshlarida bunyod etilgan Katta Oybuyirqal’a ko‘chmanchi chorvadorlar bilan savdo markazi sifatida qurilgan bo‘lishi ham mumkinligi to‘g‘risida yozib o‘tgan⁴⁹.

Mil. avv. IV asrda Ustyurtda tabiiy sharoitning yaxshilanishi, ya’ni iyul oylaridagi issiq haroratning pasayishi, namlik darajasining oshishi natijasida Uralbo‘yi hududlarida yashab kelgan chorvadorlarning aksariyat qismi bu yerga

⁴⁵ O‘sha asar. – B. 331.

⁴⁶ Баратов С.Р. Новые археологические материалы к истории древнего Хорезма. – С. 30-40.

⁴⁷ Баратов С.Р. К проблеме истоков урбанизированной культуры низовья Амударьи. – С.38.

⁴⁸ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – С.104.

⁴⁹ Вайнберг Б.И. Этногеография Турана... – С. 149

keladi va ko'chmanchi chorvadorlar soni Ustyurt bo'ylarida oshib ketadi. Ko'plab ko'chmanchi chorvadorlarning Janubiy Ural dashtlaridan Ustyurtga ko'chib kelishi natijasida Orol va Kaspiy dengizi atroflarida ko'chmanchi chorvadorlarning sonining ortib ketishiga olib kelgan.

Uchinchi paragraf *“Massagetlar va ularning ijtimoiy kelib chiqishi bo'yicha munozaralar tahlili”* deb nomlanib, unda massagetlar tarixi yozma va arxeologik manbalar asosida tahlil qilingan, bu boradagi tadqiqotchilarning fikri bilan qiyosiy solishtirilgan. Massagetlar ko'chmanchi chorvador qabilalarning uyushmasi, ya'ni konfederatsiyasi hisoblanadi. “Massaget” atamasi dastlab Gerodotning “Tarix” kitobida tilga olingan. Strabon, Ktesiy asarlarida ham massagetlar haqida ma'lumotlar berilgan. S.P.Tolstovning fikricha, massagetlar konfederatsiyasiga xorasmiylar, apasiaklar, sakavaraklar, amyurgiya saklari, derbiklar, toxarlar (dahlar), osiylar (yatiy, asian, usun, yaksart), augasiylar kirgan.

XX asrning 70-yillaridan V.N.Yagodin tomonidan Ustyurtda ko'pgina yodgorliklar aniqlangan. V.N.Yagodin Orol-Kaspiy hududlarda ko'chmanchi chorvador qabilalarning mozar-qo'rg'onlari, tosh sag'analarning qurilish uslubini guruhlariga bo'lib o'rgangan⁵⁰.

